Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidebek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмамаев Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
<i>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</i>	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
<i>Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
<i>G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</i>	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
<i>Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
<i>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
<i>Iminova Z. B.</i>	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
<i>Inayatova Nargisa Nishonboyevna</i>	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
<i>Kalmuratovna Venera Sultanova</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
<i>Kamola Abdullayeva</i>	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
<i>Karimov Orif Obloqul o'g'li</i>	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
<i>Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</i>	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
<i>Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
<i>Makulov Shuxratjon Zokirovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
<i>Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
<i>Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
<i>Mansurova Umida Mansur qizi</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
<i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
<i>Murodov Nozimjon Olimjonovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
<i>Nafasova Jamila Turg'un qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
<i>Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</i>	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
<i>O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</i>	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
<i>Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</i>	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
<i>Ostanov Askarjon Nuriddinovich</i>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



O'QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Kalmuratovna Venera Sultanova

Qoraqalpog'iston Tibbiyot Instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlariga bag'ishlangan. Maqolada didaktik o'yinlar ta'limning o'quvchi faolligini kuchaytiruvchi samarali shakli ekanligi, shuningdek, ushbu o'yinlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'rganishi va o'zlashtirishi chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot madaniyati ko'nikmalari; didaktik o'yinlar; ijtimoiy tajriba; o'yin qoidalari; bilish faoliyati.

Abstract: This article examines the possibilities of using didactic games in developing communicative culture skills among secondary school students. The study highlights that didactic games serve as an effective form of instruction that enhances learners' activity and supports students in studying and assimilating social experience.

Key words: communicative culture skills; didactic games; social experience; game rules; cognitive activity.

Аннотация: Данная статья посвящена возможностям использования дидактических игр в процессе формирования навыков коммуникативной культуры у учащихся общеобразовательной школы. В работе раскрывается, что дидактические игры являются эффективной формой обучения, активизирующей учебную деятельность учащихся, а также способствующей изучению и усвоению ими социального опыта.

Ключевые слова: навыки коммуникативной культуры; дидактические игры; социальный опыт; правила игры; познавательная деятельность.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bu yosh avlodning ijtimoiy faolligi, fikrlash madaniyati va samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishidir. Muloqot madaniyati insonning nafaqat nutqiy savodxonligi, balki uning ijtimoiy tajribasi, o'zini tutish qoidalariga amal qilishi, fikrini to'g'ri ifodalashi, boshqalarni tinglashi va ular bilan o'zaro hurmat asosida munosabatlar o'rnatish bilan ham chambarchas bog'liq. Ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarning ana shu ko'nikmalarini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash va shaxsiy rivojlanishiga zamin yaratishdan iborat. Maktab esa muloqot madaniyatini shakllantirishning eng dastlabki, izchil va samarali maydoni hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash, erkin muloqotga kirisha olish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlashda didaktik o'yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'yin – bu bola psixologiyasiga eng yaqin, tabiiy va qiziqarli faoliyat turi bo'lib, u ta'lim jarayonini jonlantiradi, o'quvchini faol subyektga aylantiradi, unda fikrlash va o'z fikrini ifodalash ehtiyojini kuchaytiradi. O'yin orqali o'quvchi o'z nuqtai nazarini bildiradi, bahslashadi, tengdoshlarini tinglaydi, muhokama qiladi va eng muhimi – o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi. Shu jihatdan didaktik o'yinlar muloqot madaniyatini shakllantirishda pedagogik jihatdan eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni bir necha pedagogik va psixologik omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, didaktik o'yinlar o'quvchilarning emosional faolligini oshiradi, bu esa ular o'rtasida iliq munosabat, do'stona muhit va erkin muloqotga sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yin jarayonida o'quvchilar tabiiy ravishda o'zaro hamkorlik qiladi, fikr almashadi, vaziyatni baholaydi va qaror qabul qiladi. Bu jarayonlar esa muloqot madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlari bo'lgan tinglash, tushunish, izohlash, asoslash va o'z fikrini madaniyatli tarzda yetkazish malakalarini mustahkamlaydi. Uchinchidan, didaktik o'yinlar muloqotning ijtimoiy-hissiy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi; ya'ni o'quvchi o'yin davomida o'z hissiyatini boshqaradi, o'zini tutish qoidalariga amal qiladi, o'rtoqlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi.



Shuningdek, didaktik o'yinlar o'qituvchiga ta'limiy jarayonni faol, mazmunli va tizimli tashkil qilish imkonini beradi. O'yin davomida yuzaga keladigan vaziyatlar o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga, ularning lug'at boyligini kengaytirishga, to'g'ri talaffuz va aniq fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi. O'qituvchi o'yin jarayonini nazorat qilgan holda, har bir o'quvchining muloqot madaniyatidagi individual kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali metodlardan foydalanadi. Mazkur metodlar o'quvchida nafaqat muloqot madaniyati, balki ijtimoiy mas'uliyat, jamoada ishlay olish, o'zini tuta bilish va o'z fikrini madaniyatli tarzda bayon qilish malakasini shakllantiradi.

Shu bilan birga, didaktik o'yinlarning qo'llanishi o'quvchilarni dars jarayonida faollikka undaydi, ularda ichki motivatsiya va o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. O'yin orqali olingan bilim, quruq nazariy ma'lumotdan ko'ra tezroq esda qoladi, chunki u bevosita amaliy faoliyat bilan bog'lanadi. Bu esa o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarining mustahkamlanishiga turtki bo'ladi. Natijada o'quvchi nafaqat o'yin jarayonida, balki kundalik hayotda, jamoa oldida, sinfda, maktab tadbirlarida ham o'z fikrini dadil, ravon va madaniyatli tarzda bayon qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlar samarali metod sifatida o'zining yuqori pedagogik ahamiyatini namoyon etadi. U nafaqat ta'lim jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchilarni ijtimoiy moslashuvchanlik, sog'lom kommunikativ muhitda o'zaro faoliyat yuritish, madaniyatli muloqot qilish va jamoada o'z o'rnini topish kabi hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shu sababdan didaktik o'yinlardan foydalanish nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki umumiy o'rta ta'limning barcha bosqichlarida dolzarb bo'lib, zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

MDH mamlakatlari olimlari L. I. Bojovich^[2] muloqot jarayonida o'quvchi o'zini baholashi va o'z o'rnini belgilashiga oid jarayonlarni, Y. G. Shubnikova^[7] va N. B. Shumakova^[8] o'quvchilarda muloqotga kirishishda dialog va ijodiy faollikning ahamiyatiga oid muammolarni, N. Y. Shurkova^[9] hamda M. A. Chernishova^[10]larning tadqiqotlarida esa o'quvchilarda muloqotni shakllantirishning madaniyat bilan bog'liq jihatlarini o'z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlardan N. T. Ngoc^[5] muloqot mahoratini rivojlantirish, H. W. Kraft^[3], D. A. Lewis^[4], F. A. Yusuf^[6] va K. Bentley^[1] muloqot mahoratini rivojlantirishda fikrlash jarayonlarining ahamiyati, ta'limiy modellar va muloqotda tanqidiy fikrlash muammolariga oid tadqiqotlarni olib borganlar.

Mavjud tadqiqot ishlarida muloqot mahoratini rivojlantirishga oid muammolar tadqiq etilgan bo'lsa-da, o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslariga kengroq yondashilmagan.

Ma'lumki, o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda o'yinga asoslangan didaktik vaziyatlar muhim o'rin egallaydi. Chunki o'yinlarda tasodifiy holatlar bo'lmaydi. U barcha xalqlarning madaniy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar inson tabiati, turmush tarzi va boshqa xarakterli jihatlarining obyektiv holatini o'zida mujassamlashtiradi. U ishtirokchilar timsolida xulq-atvorning yuksak shakllarini namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda, ular xulq-atvor bilan bog'liq murakkab vazifalarni yechish imkonini ham beradi. O'yin o'z ishtirokchilaridan muayyan bosim, o'tkir zehnilik, topqirlik, birgalikdagi uyg'unlashgan harakatlar va kuch-quvvatni talab qiladi.

O'yin jarayonida o'quvchilarning kuchlari cheklanadi va boshqa ishtirokchilarning imkoniyatlari yordamida boshqariladi. O'yinning barcha vazifalari uning zarur sharti va o'z xulq-atvorini boshqalarniki bilan muvofiqlashtirish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'yin ishtirokchilari orasida faol munosabat tarkib topadi. Bu bir-biriga hujum qilish va himoyalash, ziyon yetkazish va ko'maklashish, o'z harakatlarini amalga oshirishda o'yin jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan hisoblashishda namoyon bo'ladi. Bunday o'yin o'quvchining yorqin, harakatchan, faol, ijtimoiy, jamoaviy tajribasini aks ettiradi. Shuning uchun ham o'yinlar o'quvchilarda ijtimoiy xarakterdagi ko'nikma va malakalarni hosil qilishning tengsiz vositasidir.

O'yinlarning o'ziga xos jihatlaridan biri – barcha ishtirokchilarning o'yin qoidalari va shartlariga bo'ysunishi zarurligidir. Bu o'quvchilarda o'ziga xos xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish imkonini beradi. Birinchi navbatda, o'yin yordamida o'quvchilarda ongli, aql-idrokka asoslangan xulq-atvor ko'nikmalari tarkib topadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu doirasida o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlarning ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar asosan kuzatish, suhbat, anketa va tajriba-sinov metodlari orqali yig'ildi. Dastlab 5–6-sinf o'quvchilari ishtirokida kuzatuv o'tkazilib, dars jarayonida o'quvchilarning muloqotga kirishish darajasi, nutqiy faolligi va o'zaro hamkorlik holati qayd etildi. Shundan so'ng o'quvchilar va o'qituvchilar bilan yarim strukturali suhbatlar tashkil etilib, didaktik o'yinlarning ularning fikrlash jarayoni, muloqot shakllari va darsdagi ishtirokiga ta'siri o'rganildi. Anketa savol-



lari yordamida o'quvchilarning o'yin jarayoniga bo'lgan qiziqishi, o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlar hamda muloqot ko'nikmalarining rivojlanish darajasi aniqlanib, yig'ilgan ma'lumotlar miqdoriy va sifat tahlili asosida saralandi. Tajriba-sinov ishlarida didaktik o'yinlardan foydalanilgan va foydalanilmagan guruhlar taqqoslanib, o'quvchilarning muloqot madaniyati ko'rsatkichlari diagnostik testlar orqali baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan umumlashtirilib, didaktik o'yinlar o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda qay darajada samarali ekanligi aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o'yin darsidan foydalandik. Bu darsning maqsadi – o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda o'yin va o'yinga asoslangan didaktik vaziyatlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat. Dars mavzusi muayyan maqsadga yo'naltirilganligi bilan xarakterlidir. Bunday didaktik vaziyatni biz 5–6-sinf o'quvchilari bilan tashkil qildik.

Biz quyida shunday darsdan misol keltiramiz. Bu mashg'ulot 5-sinf o'quvchilari bilan tashkil etildi. Chunki 5-sinf umumiy o'rta ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lgan o'tish davri hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar yangi o'qituvchilar, yangi o'quv dasturlari va yangi mazmundagi o'quv predmetlariga duch keladilar. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi – o'quvchilarning yangi muhitdan cho'chishga yo'l qo'ymaslik, balki ularda alohida qiziqish uyg'otishdir. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari bu borada alohida jonbozlik ko'rsatishlari lozim.

Ona tili va adabiyot faniga 5-sinfda jami 9 soat vaqt ajratilgan. O'quvchilar o'qituvchi bilan har kuni bir–ikki marta uchrashib, til vositalari va badiiy asarlarni o'rganadilar hamda muloqot jarayoniga kirishadilar. Xuddi mana shu o'rinda o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchiga didaktik o'yinlar yaqindan yordam beradi. O'qituvchi bunday o'yin mashg'ulotlaridan an'anaviy darslar tarkibida ham chuqur o'ylangan holda, aql–idrok bilan foydalanishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni murakkab, katta masalalarni o'zlashtirishga qiziqtiradi, o'quv materiallarini yaxshi idrok etishga undaydi. Bunda unga didaktik o'yinlar qo'l keladi. Masalan:

Dars mavzusi: So'z birikmasi va gap.

Darsning maqsadi:

- nutqning muhim birligi bo'lgan so'z birikmasi va gapning ahamiyatini ochish;
- o'quvchilarni so'z birikmasining o'ziga xos belgilari bilan tanishtirish.

Darsning borishi.

Ko'rinarli joyda kompyuter vositasida so'z birikmasi va gapning ta'rifi aks etgan slayd paydo bo'ladi. Mazkur slaydda so'z birikmasi va gapning o'ziga xos grammatik belgilari tavsiflanadi.

O'quvchilarga sintaksis tilshunoslikning muhim bo'limi sifatida so'z birikmasi, gap va matnning qurilishi hamda nutqdagi ahamiyatini o'rgatishi tushuntiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: *“Sintaksis so'zi qanday ma'noni anglatadi?”*

O'quvchilar quyidagicha javob beradilar: *“Bu tilshunoslikning biz o'rganishni boshlagan mustaqil bo'limi. Uni o'rganish natijasida biz so'z birikmalari, gaplar va matnlar tuzishni o'rganamiz.”*

O'quvchilar qo'llariga ruchka oladilar va yozishga chog'lanadilar. Shu vaqtda bo'yinlariga yozuvli taxtachalar osilgan o'quvchilar sinfonasiga yugurib kiradilar. Bu taxtachalarda har bir o'quvchi aytishi kerak bo'lgan so'zlar yozilgan bo'ladi.

O'qituvchi hayron qolgan tarzda ularga yuzlanadi va: *“Sizlar kimsizlar?”* – degan savolni beradi.

O'quvchilar: *“Biz so'zlarmiz,”* – deya javob beradilar.

O'qituvchi: *“Sizlar nimadandir xafamisizlar?”*

O'quvchilardan biri: *“Ha, shunday, lekin avval o'quvchilar savolga javob bersinlar: Insonlarga so'zlar nima uchun kerak?”* – deya murojaat qiladi.

O'quvchilar: *“Muloqotga kirishish uchun,”* – deb javob beradilar.

So'z timsolidagi o'quvchilar: *“Balki har bir so'z alohida tarzda qanday ma'noni anglatishini bilishning o'ziga gina muloqotga kirishish uchun yetarli emas. Yana boshqa narsalar ham zarurdir.”*

O'qituvchi yordamida o'quvchilar: *“So'zlarni muvofiqlashtirish uchun,”* – deb javob beradilar.



So'z timsolidagi o'quvchi: *"To'g'ri. Achinarli jihati shundaki, biz gapning qanday tuzilishini ham bilmaymiz, hattoki so'z birikmasini ham tuza olmaymiz. Bizga yordam bering. Siz bilasizmi, so'z birikmasi nima?"*

O'quvchilar: *"So'zlarning birikuvi,"* – deb javob beradilar.

O'qituvchi: *"To'g'ri."* U o'quvchilarning e'tiborini so'z birikmasining ta'rifi yozilgan slaydga jalb qiladi.

Shundan keyin o'qituvchi so'z timsolidagi o'quvchilarga murojaat qiladi: *"Qani, bu yoqqa kelinglar-chi, Yorqinlar va Yaproqlar."*

Tanlangan so'zlar bir qadam oldinga chiqadilar.

O'qituvchi: *"O'quvchilar, yaproqlar yorqin bo'lishi mumkinmi?"*

O'quvchilar: *"Ha, bo'lishi mumkin."*

O'qituvchi: *"Unda bu so'zlarni ma'nolariga ko'ra bir-birlariga bog'lash mumkinmi? Menimcha, bu yerda nimadir yetishmayapti. Bu nima?"*

O'quvchilar o'qituvchi yordamida: *"Bu grammatik bog'lanish."*

O'qituvchi: *"Qanday aytsa to'g'ri bo'ladi?"*

O'quvchilar: *"Yorqin yaproqlar."*

O'qituvchi: *"To'g'ri."*

Shundan keyin o'qituvchi slaydlar yordamida yana bir marta so'z birikmasining mantiqiy hamda grammatik jihatdan aloqadorligini tushuntirib beradi.

O'qituvchi: *"Boshqa so'zlar bilan nima qilish kerak?"*

So'zlar: *"Bizdan gap tuzib oling."*

O'qituvchi: *"Buning uchun..."*

O'quvchilar o'qituvchi yordamida: *"... so'zlarni aniq tartibda joylashtirib, mazmuni va grammatik jihatlariga ko'ra bog'lash lozim."*

O'quvchilar gap tuzadilar. So'zlar zarur tartibda joylashtiriladi. O'qituvchi esa zarur o'rinlarda qo'shimchalarni o'zgartiradi. Shundan keyin o'qituvchi slayd yordamida so'z birikmalari va gaplar sintaktik birlik ekanligini tushuntirib beradi. O'qituvchilar bilan birgalikda so'z birikmasi ustida ishlashga kirishadilar.

Didaktik o'yinlar o'quvchi tafakkurini shakllantiruvchi o'ziga xos maktab hamdir. Chunki tafakkurning barcha ko'rinishlari muayyan qiyinchiliklarga javob topish, atrof-muhit hodisalari bilan to'qnashishlarni bartaraf etish jarayonida hosil bo'ladi. Bunday murakkabliklar mavjud bo'lmagan vaziyatlarda o'quvchilarning harakatlari yengil kechadi, lekin ular bu jarayonda mantiqiy fikrlashga ehtiyoj sezmaydilar va mavjud tajribalarga tayangan holda harakat qiladilar.

Kutilmagan, yangi kombinatsiyalar vujudga kelganda o'quvchilardan ham yangi kombinatsiyalar va munosabatlar talab qilinadi. Bunday vaziyatda o'quvchilar o'z faoliyatlarini jadallik bilan qayta qurishlari lozim. Bu o'rinda ular tafakkur qiladilar va xulq-atvorning yangi ko'rinishlari bosqichiga kiradilar.

Tajribaning o'ta murakkab shakllarini namoyon qilish natijasida o'quvchilar muayyan tanlov ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ular ko'plab imkoniyatlar orasida maqsadga muvofiqligini tanlashga intiladilar. Ko'pgina ta'sirlar natijasida o'quvchilarda tafakkur tarzi shakllanadi hamda ular orasidan muhimini dastlabki ta'sir yordamida tanlab oladilar.

Xuddi mana shu o'quvchilarga o'yinga ma'lum qoidalarni kiritish va uning yordamida o'z harakatlarini chegaralash imkonini beradi. O'quvchilar oldiga muayyan maqsadga erishish uchun aniq vazifalar qo'yish orqali ularning imkoniyatlari va layoqatlarini yuqori nuqtaga ko'tarish mumkin. Bu o'quvchilarga o'z xulq-atvorlarini o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshirishi uchun qulay sharoit yaratadi va ularni shunga undaydi.

Buning natijasida o'quvchilarning hatti-harakatlari yagona maqsadga yo'naltiriladi, ular o'z oldilariga qo'yilgan ma'lum vazifalarni ongli bajaradilar.

XULOSA VA TAKLIFALR

Demak, didaktik o'yinlar – aql-idrokka asoslangan, maqsadga tayangan holda shakllantirilgan, rejalashtirilgan, ijtimoiy muvofiqlashtiruvchi, xulq-atvorning muayyan qoidalari va kuch-quvvat sarflashga asoslangan didaktik jarayondir. Bu xususiyati bilan didaktik o'yinlar insonning mehnatga sarflaydigan kuch-quvvatiga teng keladi. Chunki inson mehnat faoliyatining belgilari o'yin faoliyati belgilariga mosdir. Qo'lga kiritiladigan natijalar esa bundan mustasno.



Barcha tabiiy farqlarga qaramasdan, mehnat va o'yin faoliyati orasidagi turli-tumanlikka asoslangan holda ularni o'zaro qarama-qarshi hodisalar sifatida baholash mumkin. O'yin va mehnatning pedagogik-psixologik tabiati o'zaro mos keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar o'quvchilar mehnatining tabiiy shakli hisoblanadi. Unga mansub bo'lgan faoliyat shakli esa o'quvchilarni kelgusi hayot va undagi ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bentley K. STT: Student Talking Time. How can teachers develop learners' communication skills in a Secondary School CLIL programme? // Revista Espanola de Linguistica Aplicada. – 2007. – № 1. – P. 129–140.
2. Божович Л. И. Проблемы формирования личности: избранные психологические труды. – 3-е изд. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2001. – 349 с.
3. Kraft H. W., Lewis D. A. Developing communication skills: A model for German instruction at the high school // Die Unterrichtspraxis / Teaching German. – 1982. – Т. 15. – № 2. – С. 183–193.
4. Lewis L. K. An Organizational Stakeholder Model of Change Implementation Communication // Communication Theory. – Vol. 17, Issue 2, 2007. – P. 176–204.
5. Ngoc N. T. Developing Communication Skills for Secondary School Students via Experiential Activities // International Journal of Learning and Teaching. – 2021. – Т. 7. – № 4. – С. 286–291.
6. Yusuf F. A., Adeoye E. A. Developing critical thinking and communication skills in students: Implications for practice in education // African Research Review. – 2012. – Т. 6. – № 1. – P. 311–324.
7. Шубникова Е. Г. Педагогическое общение как фактор воспитания гуманных взаимоотношений младших школьников: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Чебоксары, 2001. – 18 с.
8. Шумакова Н. Б. Диалог и развитие творческой активности у детей. – Москва: Академия, 1999. – С. 175–181.
9. Щуркова Н. Е. Новое воспитание. – М.: Педагогическое общество России, 2000.
10. Чернишова Л. И. Психология общения: этика, культура и этикет делового общения. – М.: Юрайт, 2019. – 161 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.